



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o'rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma'lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bog'liq.


Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo'lib, u yerda yakka iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o'zaro aloqada bo'ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug'ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma'lumki, bozor tizimida hamma narsa o'z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta'minlaydigan keng tizimga ega bo'lamiz.

O'zbekistondagi korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o'z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar


fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2021- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 207	Paxtaobod t.	242
Asaka t.	458	Jalaquduq t.	234
Shahrixon t.	457	Oltinko'l t.	227
Andijon t.	447	Izboskan t.	223
Baliqchi t.	387	Buloqboshi t.	221
Xo'jaobod t.	271	Bo'ston t.	207
Qo'rg'ontepa t.	266	Xonobod sh.	136
Marhamat t.	244	Ulug'nor t.	107


Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 5 334 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 1 145 taga kamaydi va o'sish sur'ati 82,3 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarda, Andijon tumani (55 ta), Xonobod shahri (23 ta) va Baliqchi (13 ta) tumanida sezilarli o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 748
117,6 %



Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

9 608

118,5 %



Sanoat

3 398

112,8 %



Qurilish

12 082

124,0 %



Savdo

1 410

108,8 %



Tashish
va saqlash

2 004

115,0 %



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar

629

116,9 %



Axborot va aloqa

1 009

119,8 %



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish

8 920

111,3 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 13 437

Asaka t. 3 902

Shahrixon t. 2 949

Andijon t. 2 801

Baliqchi t. 2 145

Qo'rg'ontepa t. 2 113

Oltinko'l t. 1 955

Izboskan t. 1 878

Marhamat t. 1 761

Paxtaobod t. 1 665

Xo'jaobod t. 1 657

Jalaquduq t. 1 630

Buloqboshi t. 1 241

Bo'ston t. 1 072

Xonobod sh. 830


Ulug'nor t. 772

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (35 636 ta) nisbatan 6 169 taga oshib, o'sish sur'ati 117,3 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Andijon shahri (1 569 ta), Asaka (591 ta), Andijon (578 ta), Shahrixon (435 ta) va Baliqchi (373 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich savdo sohasida – 2 338 ta, sanoat – 1 497 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 411 taga to'g'ri kelib, axborot va aloqa sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 91 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati

2021- yilning
2020- yilga
nisbati2021- yilning
2019- yilga
nisbati

Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 148
Asaka t.	435
Andijon t.	416
Baliqchi t.	378
Shahrixon t.	341
Xo'jaobod t.	264
Paxtaobod t.	234
Qo'rg'ontepa t.	226
Jalaquduq t.	225
Izboskan t.	216
Oltinko'l t.	198
Marhamat t.	196
Buloqboshi t.	180
Bo'ston t.	164
Xonobod sh.	126
Ulug'nor t.	101

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 50 foizi yangi tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o'tgan yilga nisbatan Andijon tumanida (31 taga), Xonobod shahrida (16 taga) va Baliqchi tumanida (9 taga) sezilarli o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o'sish axborot va aloqa (20 taga) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida (18 taga) o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 36 456 tasi yoki 87,2 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 118,5 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish savdo (124,0 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (121,3 foiz), sanoat (118,5 foiz) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (117,7 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida esa Andijon (128,0 foiz), Baliqchi (124,8 foiz), Bo'ston (123,6 foiz), Ulug'nor (122,9 foiz) va Qo'rg'on tepa (122,4 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	12 294
Asaka t.	3 483
Andijon t.	2 490
Shahrixon t.	2 463
Baliqchi t.	1 836
Qo'rg'on tepa t.	1 743
Oltinko'l t.	1 664
Izboskan t.	1 612
Marhamat t.	1 477
Xo'jaobod t.	1 437
Paxtaobod t.	1 400
Jalaquduq t.	1 335
Buloqboshi t.	1 013
Bo'ston t.	864
Xonobod sh.	727
Ulug'nor t.	618


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 143	Jalaquduq t.	225
Asaka t.	435	Izboskan t.	215
Andijon t.	415	Oltinko'l t.	198
Baliqchi t.	378	Marhamat t.	194
Shahrixon t.	340	Buloqboshi t.	180
Xo'jaobod t.	263	Bo'ston t.	164
Paxtaobod t.	234	Xonobod sh.	126
Qo'rg'ontepa t.	226	Ulug'nor	101

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 363	Sanoat 1 376	Qurilish 336
Savdo 1 872	Tashish va saqlash 116	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 211
Axborot va aloqa 112	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 125	Boshqa turlar 326

Ma'lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.


Pandemiya davrida tadbirkorlik subyektlari davlat iqtisodiyotining barqaror ishlashiga munosib hissasini qo'shib kelayotganligini alohida ta'kidlash lozim.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining o'sish sur'ati 2017- yilning mos davriga nisbatan 2,5 martaga oshgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	12 230	Marhamat t.	1 472
Asaka t.	3 475	Xo'jaobod t.	1 432
Andijon t.	2 479	Paxtaobod t.	1 396
Shahrixon t.	2 458	Jalaquduq t.	1 332
Baliqchi t.	1 834	Buloqboshi t.	1 012
Qo'rg'ontepa t.	1 738	Bo'ston t.	861
Oltinko'l t.	1 659	Xonobod sh.	723
Izboskan t.	1 609	Ulug'nor t.	615

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 5 692 taga ko'paygan va 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sdi va o'sish sur'ati 118,6 foizni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish savdoda (124,2 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (121,2 foiz), sanoatda (118,6 foiz) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (118,0 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida Andijon (128,0 foiz), Baliqchi (124,9 foiz), Bo'ston (124,1 foiz), Ulug'nor (123,0 foiz) va Qo'rg'ontepa (122,7 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

2- bo'lim. Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Dehqonchilik,
va chorvachilik,
ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

2 558

17

O'rmonchilik
va yog'och
tayyorlash

Baliq ovlash
va akvakultura


173

Asaka t.	403
Andijon sh.	252
Andijon t.	233
Qo'rg'ontepa t.	222
Izboskan t.	211
Shahrixon t.	209
Paxtaobod t.	195
Baliqchi t.	181
Marhamat t.	143
Oltinko'l t.	137
Jalaquduq t.	123
Ulug'nor t.	123
Bo'ston t.	113
Buloqboshi t.	84
Xo'jaobod t.	82
Xonobod sh.	37


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi koronavirus pandemiyasi davrida iqtisodiyot tarmoqlari orasidagi eng kam zarar ko'rib faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlardan biridir.

Hukumatimiz tomonidan ushbu sohaga qaratilayotgan alohida e'tibor sababli, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davriga nisbatan qariyb bir yarim baravar ko'paydi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan esa 411 taga oshgan.

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 331
Asaka t.	1 010
Andijon t.	782
Shahrixon t.	719
Xo'jaobod t.	520
Oltinko'l t.	441
Baliqchi t.	396
Qo'rg'ontepa t.	386
Jalaquduq t.	343
Izboskan t.	320
Marhamat t.	293
Buloqboshi t.	282
Paxtaobod t.	271
Bo'ston t.	215
Xonobod sh.	180
Ulug'nor t.	119



Ishlab chiqarish sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so'nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 177,2 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 23,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,3 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilga nisbatan o'sish 118,6 %), 1,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 126,7 %), 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (86,4 % ni) va 1,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 115,3 %) tashkil etgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida



Bino va inshootlar qurish

2 111
111,3 %

Fuqarolik obyektlarini qurish

264
111,4 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

1 023
116,3 %

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 17,7 foizga oshgan.


Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qarganda:

binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 62,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,3 foizga oshgan;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 7,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,4 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,1 foiz ulushni va 116,3 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 563
Asaka t.	1 065
Shahrixon t.	801
Baliqchi t.	774
Andijon t.	739
Qo'rg'on tepa t.	673
Oltinko'l t.	667
Izboskan t.	626
Paxtaobod t.	592
Jalaquduq t.	558
Marhamat t.	510
Xo'jaobod t.	496
Buloq boshi t.	335
Bo'ston t.	264
Xonobod sh.	218
Ulug'nor t.	201

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

7 858
122,5 %

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo

3 367
127,3 %


Avtomobil va
mototsikllarning
ulgurji va chakana
savdosi va ularni
ta'mirlash

857
125,3 %


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 65,0 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 22,5 foizga o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 27,9 foiz ulushni tashkil etib, 27,3 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,1 foiz ulushni tashkil etib, 25,3 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	830
Asaka t.	177
Andijon t.	138
Xonobod sh.	111
Shahrixon t.	101
Qo'rg'ontepa t.	83
Oltinko'l t.	77
Ulug'nor t.	73
Izboskan t.	62
Paxtaobod t.	62
Baliqchi t.	56
Buloqboshi	54
Jalaquduq t.	54
Xo'jaobod t.	50
Marhamat t.	42
Bo'ston t.	34

Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar




2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 32,8 foizga oshgan bo'lib, viloyatdagi jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,8 foiz ulushini tashkil etdi.


Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,1 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo'yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,9 foiz ulushini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	241
Asaka t.	52
Shahrixon t.	48
Baliqchi t.	38
Marhamat t.	38
Xo'jaobod t.	36
Qo'rg'ontepa t.	35
Buloqboshi t.	32
Andijon t.	23
Oltinko'l t.	21
Jalaquduq t.	18
Izboskan t.	15
Paxtaobod t.	13
Xonobod sh.	9
Ulug'nor t.	6
Bo'ston t.	4



Nashriyotchilik faoliyati



Kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish



Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish



Aloqa



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar




Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra nashriyotchilik faoliyati, kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 12,6 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 19,7 foizga oshgan.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 46,6 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 18,1 foizga o'sgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 40,8 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 14,7 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	367
Asaka t.	87
Shahrixon t.	82
Andijon t.	64
Izboskan t.	56
Baliqchi t.	47
Marhamat t.	46
Qo'rg'ontepa t.	44
Oltinko'l t.	42
Xo'jaobod t.	41
Paxtaobod t.	37
Jalaquduq t.	35
Buloqboshi t.	33
Xonobod sh.	15
Bo'ston t.	8
Ulug'nor t.	5

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

982
120,0 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

20
117,6 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


7
100,0 %

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 97,3 foizini sog'liqni saqlash sohasi yo'nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 20,0 foizga o'sgan.


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining 2,0 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 117,6 foizni tashkil etgan.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,7 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 100,0 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	598
Asaka t.	133
Andijon t.	91
Shahrixon t.	73
Qo'rg'ontepa t.	67
Baliqchi t.	57
Oltinko'l t.	54
Izboskan t.	52
Xo'jaobod t.	48
Marhamat t.	48
Paxtaobod t.	45
Buloqboshi t.	39
Jalaquduq t.	39
Bo'ston t.	36
Ulug'nor t.	15
Xonobod sh.	15

Quruqlikdagi va quvur transporti

1 054

109,9 %

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati

328

103,8 %

Pochta va kuryerlik faoliyati

26

130,0 %

Havo transporti

2

2,0 marta

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,4 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 9,9 foizga, ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida 3,8 foizga, pochta va kuryerlik yo'nalishida 30,0 foizga oshgan. Havo transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,0 martaga oshgan.


Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni




Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati



2021- yilning
2020- yilga
nisbati

2021- yilning
2019- yilga
nisbati

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida


Andijon sh.	1 068	Izboskan t.	194
Asaka t.	351	Oltinko'l t.	185
Andijon t.	342	Marhamat t.	181
Baliqchi t.	341	Qo'rg'ontepa t.	167
Shahrixon t.	269	Buloqboshi t.	163
Xo'jaobod t.	241	Xonobod sh.	120
Paxtaobod t.	227	Ulug'nor t.	98
Jalaquduq t.	211	Bo'ston t.	85

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

1 871
122,2 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

7 088

120,9 %



Sanoat

2 909

115,3 %



Qurilish

9 291

128,7 %



Savdo

1 287

109,5 %



Tashish va saqlash

1 334

118,7 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

466

132,0 %



Axborot va aloqa

748

126,1 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2 758

116,2 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 9 587

Asaka t. 2 079

Andijon t. 1 936

Shahrixon t. 1 890

Izboskan t. 1 369

Baliqchi t. 1 331

Oltinko'l t. 1 286

Xo'jaobod t. 1 270

Qo'rg'ontepa t. 1 214

Marhamat t. 1 183

Paxtaobod t. 1 142

Jalaquduq t. 1 115

Buloqboshi t. 773



Xonobod sh. 577

Ulug'nor t. 517

Bo'ston t. 483

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 36 456 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 27 752 tani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda, o'sish axborot va aloqa (132,0 foiz), savdo (128,7 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (126,1 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (122,2 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Baliqchi (133,1 foiz), Andijon (132,3 foiz), Xonobod shaxri (128,8 foiz), Ulug'nor (128,6 foiz) va Paxtaobod (128,3 foiz) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**Yillar kesimida soni****Yillar kesimida o'sish sur'ati****Hududlar kesimida**

Andijon sh.	1 671	Oltinko'l t.	202
Asaka t.	821	Jalaquduq t.	171
Baliqchi t.	425	Xo'jaobod t.	140
Shahrixon t.	325	Buloqboshi t.	124
Qo'rg'ontepa t.	314	Izboskan t.	124
Andijon t.	250	Bo'ston t.	96
Marhamat t.	247	Xonobod sh.	82
Paxtaobod t.	204	Ulug'nor t.	55


2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 3,4 foizga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'sish savdoda – 106,7 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 105,3 foiz, sanoatda – 102,6 foiz hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 101,4 foizni tashkil etgan. Hududlar kesimida esa Andijon (107,3 foiz), Asaka (106,1 foiz), Xo'jaobod (105,3 foiz), Shahrixon (104,8 foiz), Qo'rg'ontepa (104,7 foiz) va Baliqchi (103,4 foiz) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	808	Izboskan t.	96
Asaka t.	545	Xonobod sh.	55
Andijon t.	279	Baliqchi t.	53
Bo'ston t.	271	Ulug'nor t.	36
Shahrixon t.	230	Jalaquduq t.	35
Qo'rg'ontepa t.	190	Paxtaobod t.	33
Oltinko'l t.	158	Marhamat t.	27
Buloqboshi t.	101	Xo'jaobod t.	11


2021- yil 1- oktabr holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 928 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 95,5 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o'sishi 122,2 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qarganda tashish va saqlash (133,3 foiz), qurilish (125,0 foiz), savdo (124,7 foiz) hamda sanoat (124,7 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Qo'rg'ontepa (145,0 %), Shahrixon (136,1 %), Jalaquduq (134,6 %), Baliqchi (129,3 %), Bo'ston (127,2 %) va Andijon (126,2 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 384 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 115,7 foizga, ya'ni 52 donaga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (140,0 foiz), savdo (130,2 foiz), qurilish (119,0 foiz), sanoat (111,7 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (111,1 foiz) sohalariga to'g'ri kelib, hududlar kesimida esa Qo'rg'ontepa (157,1 foiz), Buloqboshi (154,5 foiz), Jalaquduq (136,4 foiz), Xo'jaobod (130,8 foiz), Oltinko'l (129,4 foiz) hamda Paxtaobod (128,6 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	152
Andijon t.	32
Shahrixon t.	27
Asaka t.	22
Oltinko'l t.	22
Xonobod sh.	19
Buloqboshi t.	17
Xo'jaobod t.	17
Jalaquduq t.	15
Marhamat t.	14
Qo'rg'ontepa t.	11
Paxtaobod t.	9
Baliqchi t.	7
Bo'ston t.	7
Izboskan t.	7
Ulug'nor t.	6

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

 24 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	 210 Sanoat	 25 Qurilish
 56 Savdo	 4 Tashish va saqlash	 10 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
 4 Axborot va aloqa	 7 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	 44 Boshqa turlar

2021

2020



Rossiya



AQSH




Germaniya



Xitoy



Turkiya



Janubiy Koreya



Ozərbayjon



Turkmaniston



Tojikiston



Qozog'iston




Qirg'iz R.



boshqalar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 270 tasi qo'shma korxonalar, 114 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Qo'shma korxonalar

Xorijiy korxonalar

2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi – xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.


Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016– yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275– son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

